
40-UMUMTA'LIM MAKTABIDA YANGI 140 O'RINLI O'QUV BINOSI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI.

“Tashabbusli byudjet” loyihasi natijasida Toshloq tumanidagi 40-umumta’lim maktabida qo’shimcha 140-o’rinli o’quv binosi qurib bitkazildi. Zamonaviy o’quv binosini barpo etish uchun 1 milliard 200 million so’m mablag’ sarf etildi. “Toshloq qurilish va ta’mirlash” korxonasi quruvchilari tomonidan o’quvchilar uchun keng va yorug’ sinfxonalar sifatli qilib bitkazildi.

Ushbu bino O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 31 yillik bayrami arafasida Qalacha qishlog’i aholisi uchun munosib sovg’a bo’ldi.

O’quv binosini ochilish marosimida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, sektorlar rahbarlari, mahalla faollari hamda maktab jamoasi ishtirok etdi. Tuman hokimi yangi binoda o’quvchilarni har tomonlama bilim olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilganligini ta’kidlab o’tdi. Yoshlarni yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda puxta bilim olishga chaqirdi.

Tadbirda maktabni yangi binosi qurilishiga o’z hissasini qo’shgan quruvchilarga esdalik sovg’alari topshirildi. Ochilish marosimidan so’ng tadbir ishtirokchilari binoda o’quvchilarning ta’lim-tarbiya olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishishdi.

2023-12-06 17:33:23